

Date: 19th October-2025

**O‘ZBEK VA TURK TILLARIDA TO‘Y BILAN BOG‘LIQ LEKSIK
BIRLIKLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI**

Jamoldinova Risola Qobiljon qizi

Andijon davlat universiteti

4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada asosan qardosh turk to'y marosimlarini umumiy tasnifi berilgan, turk to'y marosimlariga ta'rif berilgan. Turk to'y marosimlari o'rganib chiqilib ularning ma'nosiga xam to'xtalib o'tilgan, shuningdek, to'y so'zi bilan bog'liq leksemalar keltirilgan va muhokama qilingan. O'zbek va turk to'y marosim-udumlarining o'rganishda ularning kelib chiqishi, mazmun-mohiyatini aniqlash uchun albatta tarixiy manbalardagi ma'lumotlar ko'rib chiqilgan

Kalit so'zlar: Turk to'y marosimlari, leksemalar, nikoh, taklif, to'y an'analari.

O'zbek xalqi to'y marosimlariga oid tadqiqotlar orasida A. Jo'raboyev va Z. Husainovalarning ishlari o'zbek tilidagi to'y marosimiga xos ifodalarning umumiy tahliliga bag'ishlangan bo'lsa, F. Hayitova nikoh to'yi qo'shiqlarining lingvistik tahlilini o'rganishga e'tibor qaratgan. O. Ismanovanning tadqiqoti "kelin salom" janrining poetik xususiyatlarini yoritishga, M. Kaxarovanning tadqiqoti esa o'zbek etnografizmlarining tizimli tahliliga bag'ishlangan.

O'zbek va turk xalqlari urf-odatlarini qiyosiy o'rganish bugungi globallashuv jarayonida xalqlar o'rtasidagi madaniy-anglashilmovchiliklarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois bu masala nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham dolzarbdir.

O'zbek va turk to'y marosimlari tarixini tadqiq etishda ularning kelib chiqishi, mazmun-mohiyati hamda ramziy ma'nolarini aniqlashda tarixiy manbalardagi ma'lumotlar alohida o'rin tutadi.

Mazkur mavzuni yoritishda tasniflash, tavsiflash, zidlashtirish, qiyoslash, sotsiolingvistik, tavsifiy va qiyosiy tahlil, tarixiylik hamda tizimli yondashuv, shuningdek, semantik va semiotik nazariya asosidagi tahlil metodlaridan foydalanildi.

Pertev N. Boratov va Özdemir Nutku kabi turk olimlari to'y marosimlariga oid izlanishlar olib borib, ularning madaniy hamda lingvokulturologik jihatlarini chuqur tahlil etganlar. O'zbek xalqining nikoh to'yi tizimida "sovchilik", "unashtirish", "uy ko'rar (qiz ko'rar)", "kelin/kuyovni surishtirish" kabi marosimlarga oid ko'plab leksik birliklar mavjud. Bu kabi iboralar turk tilida ham uchraydi va qardosh xalqlar madaniyatiga xos o'xshash jihatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Turk xalqida to'y jarayonlari "ko'z ostiga olish" (Göz altına almak) bosqichidan boshlanadi. Konservativ turk oilalarida ota-onalar o'g'illari uchun kelin qidirishda do'stlari, yaqinlari yoki qarindoshlari yordamidan foydalanadilar. Yigit va qiz ko'plab qarindoshlar nazorati ostida tanishib, bir-biriga mos kelishi masalasida oila kattalari hal



Date: 19th October-2025

qiluvchi rol o'ynaydi. Zamonaviy oilalarda esa yoshlar odatda o'z juftini mustaqil tanlaydi va unashtiruvgacha bo'lgan davrda birga yashashi ham uchraydi.

Munosabatlarning jiddiyligini yoshlarning ota-onasi bilan tanishish marosimi orqali bilish mumkin. Shundan so'ng "kiz isteme" (sovchilik) jarayoni boshlanadi. Kuyov tomon kumush patnisda shokolad va gullar bilan qiz uyiga boradi. Sovchilikda choy va shirinliklar tortilgach, qiz bo'lajak kuyov uchun turk qahvasi damlaydi, biroq kuyovning finjoniga tuz solinadi. Bo'lajak kuyov qahvani sho'r bo'lishiga qaramay, e'tiroz bildirmay ichishi kerak. Bu uning turli sinov va qiyinchiliklarga sabr-toqat bilan bardosh berib, kelin bilan umr kechirishga tayyorligini bildiradi.

Unashtiruv jarayoni yakunlangach, kuyov qizga uzuk, shuningdek, tilla yoki kumushdan ishlangan ro'mol sovg'a qiladi. Turkiyada hatto yoshi ulg'aygan juftliklar ham ota-onaning rizoligini muhim deb biladi. Unashtiruv kichik to'y sifatida qaraladi.

Unashtiruvning asosiy maqsadi yoshlarning turmush qurishga tayyorlanayotganini jamoatchilikka e'lon qilishdir. Turk tilida bu marosim "nişan" deb ataladi. An'anaga ko'ra, u qiz uyida o'tkazilgan, ammo bugungi kunda to'y zallari, ochiq maydonlar yoki mehmonxonalar ham tanlanadi. Marosim davomida jonli musiqa yangraydi, mehmonlarga shirinliklar tortiladi, kelinga esa kuyov tomonidan tilla taqinchoqlar taqiladi.

To'y arafasida esa kelin dugonalari va kuyov qarindoshlari bilan hammomga boradi. Ushbu marosimda yaqinlar tomonidan yana tilla taqinchoqlar taqish odati ham mavjud. Bu an'ana qadimiy ildizlarga ega bo'lib, turk xalqining to'y marosimlariga xos ramziy qadriyatlaridan biridir.

Unashtiruvdan so'ng turk to'y marosimlarining eng muhim bosqichlaridan biri **xina kechasi** o'tkaziladi. Bu kecha ikki oilaning faqat ayollari va qizlari ishtirok etadigan marosim bo'lib, odatda kechki namozdan keyin boshlanadi. Kelin an'anaviy ravishda qizil rangdagi libos kiyadi, yuzi esa qizil harir fata bilan yopiladi. Xina qo'yilgach, kelin qo'llarini mahkam tutib turishi lozim bo'ladi. Shu paytda chiroqlar o'chiriladi va turmushga chiqmagan qizlar kelin atrofida raqsga tushib, qo'shiqlar kuylaydi.

Bo'lajak qaynona kelinning oldiga kelib, kaftlarini ochishini so'raydi. So'ng kelinning kaftiga tilla tanga qo'yiladi yoki bilaguzuk taqiladi. Bu marosim ramziy jihatdan baraka va baxt tilashni anglatadi. Kecha davomida qo'shiqlar aytiladi, shirinliklardan tatib ko'riladi, suhbatlar kechning yarmigacha davom etadi. Turmushga chiqmagan qizlar ham o'zlariga yaxshi niyat qilib, qo'llariga xina surtadilar, mehmonlarga esa xina solingan bezakli qopchalar tarqatiladi.

Nikoh marosimi odatda uzun stol atrofida, kelin-kuyov uchun bezatilgan sahnada o'tkaziladi. Sahna ustida guvohlar va davlat vakili uchun joy tayyorlanadi, mehmonlar esa teatrdagi singari zaldagi o'rindiqlarda o'tirib marosimni tomosha qiladilar. Nikoh xodimi guvohlar huzurida kelin va kuyovdan "yaxshi-yomon kunlarda birga bo'lishga rozi misiz?" deb so'raydi. Ularning "Evet" ("ha") degan javobidan so'ng nikoh rasman e'lon qilinadi va yosh juftlikka guvohnoma topshiriladi. Shu paytda kuyov kelinning peshonasidan o'padi, kelin esa kuyovning oyog'ini birinchi bo'lib bosishga harakat qiladi bu urf-odat hazil aralash ramziy ma'no kasb etadi.



Date: 19th October-2025

To'y marosimlari davomida milliy raqslar, turli o'yinlar, musiqa sadolari hamda ko'p bosqichli dasturxonlar o'rin oladi. Katta miqdordagi mehmonlarni to'liq taom bilan siylash qiyin bo'lganligi sababli, dasturxonga asosan shirinliklar, yong'oqlar va sovuq ichimliklar qo'yiladi. Bayramona qo'shiqlar, baraban va boshqa cholg'u asboblari sadosi ostida kelin-kuyov va mehmonlar raqsga tushadilar.

Marosim davomida kelin yoki kuyovni tabriklagan mehmonlar odatda gul yoki sovg'a o'rniga tilla yoki pul taqdim etadilar. Mehmonlar soni qancha ko'p bo'lsa, to'y shuncha tantanali va uzoq davom etadi.

Bugungi kunda Turkiyada ko'plab to'ylar zamonaviy Yevropa uslubida o'tkazilayotgan bo'lsa-da, aksariyat yoshlar milliy qadriyat va urf-odatlarga sodiq qolishni afzal biladilar. Bunday marosimlarning o'ziga xosligi va qadimiy ruhini "Malikam, menga qara", "Qulupnay ifori" kabi mashhur turk seriallarida ham yaqqol kuzatish mumkin.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, turk to'y marosimlari o'z mazmuni va mohiyati jihatidan Xorazm to'y an'analari bilan ko'plab o'xshashliklarga ega. Ayniqsa, marosimlarning oilaviy qadriyatlar, mehr-oqibat, hurmat va birlik g'oyalariga asoslanishi bu ikki xalqning qadimiy madaniy ildizlari bir-biriga yaqin ekanini ko'rsatadi. Biroq ayrim urf-odatlar, xususan, "tuzli qahva", "xina kechasi" (kina gecesi), "to'ydanda oldingi hammomga borish" kabi marosimlar turk xalqining o'ziga xos milliy koloritini namoyon etadi va ularni o'zbek to'y an'alaridan ajratib turadi.

Shuningdek, turk to'y marosimlari tahlili shuni ko'rsatadiki, bugungi globallashtirish, axborot almashinuvi va madaniy ta'sirlar kuchaygan davrda ham ko'plab turk oilalari milliy qadriyatlarini asrab-avaylashga, ajdodlardan meros urf-odatlarni davom ettirishga intilmoqda. Bu esa milliy o'zlikni saqlash, avlodlar o'rtasidagi ma'naviy uzviylikni ta'minlash va madaniy merosni kelajak avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, turk to'y marosimlari nafaqat ijtimoiy-madaniy hodisa, balki xalq ruhiyati, dunyoqarashi va qadriyatlarini o'zida mujassam etgan murakkab lingvokulturologik tizim sifatida o'rganilishi zarur. Shu bois, bunday tadqiqotlar turkiy xalqlar madaniy aloqalarini chuqurroq anglash, ularning til va madaniyatidagi o'xshash hamda farqli jihatlarni aniqlashga xizmat qiladi.

